

FARRUX HASANOV

ICHKARI



KITOBIM

BIRINCHI

O'z 2
H 31

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____

321.512.153 H 31

HASANOV F. (Part 1)


Kitob qabul qilingan
2011-08-11

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

FARRUX HASANOV

ICHKARI

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020


Nashr uchun mas'ul:
Muhiddin ABDUSAMAD

Mas'ul muharrir:
Zebo MIRZO

Ushbu kitobda yosh ijodkor Farrux Hasanovning samimiy ko'ngil kechinmalariga guvoh bo'lasiz. "Ichkari" nomi ostida chop etilgan birinchi kitob, o'quvchisini adoqsiz kengliklardan olib o'tib, xayoliy mo'jizalar tomon yetaklaydi. Shamollar supurgan hovlidan tashqari chiqib, ko'ngilga eltuvchi yo'lni shirin xayollar bilan poyi piyoda kezib o'tasiz.

Ushbu kitob 2020-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6780-4-0



© F. Hasanov, 2020
© "Adabiyot", 2020

KO'HNA SO'ZNING QIRRASI

Bugungi yosh ijodkorlar uchun she'riyat maydoniga kirib kelish ham oson, ham o'ta murakkabdek. Negaki, bir tomonda asrlar chizig'idan o'tgan mumtoz adabiyot durdonalari, zamonaviy nazm saltanatining ruhoniylar sarhadlarini kengaytirgan ustoz shoirlar ijodi va bugungi o'zbek she'riyatining shakliylar va uslubiylar evrilishlari...

Porloq yulduzlar yonida porlab chiqish bu butun osmon yukini o'z yuragiga singdirish demak. Shunday ekan, qalam tutgan borki, o'zi uchun, avvalo, "She'r nima?" degan savolga eng muhim javobni topib olishi zarur bo'ldi. Zotan, she'rning ruhi va qiyofasi nafaqat birgina insonning, balki butun bir davrning timsoliga aylangandagina Katta Adabiyot uchun xizmat qiladi. Ya'ni bu katta talab har bir yosh qalamkash oldida bir ulkan talabdek turadi, xususan, o'zini asl ijodga chog'lagan ijodkor shunday katta cho'qqini ko'zlaydi.

Farrux Hasanov she'r notalarini endi o'rganayotgan qalamkash emas. U shu notalar ichida o'z Ruhining aks-sadolarini ko'ra olgan, "quyosh qirralari" ko'ksiga botib, o'zligini o'zidan izlayotgan ijodkor. O'zlikni izlash,

topish, yo'qotish – bu mangu izlam, so'zning yo'li. U ko'hna So'z qoshida turib o'zini so'raydi, ruhiga yaqin, ko'nglining azaliy isyonlariga yaqin she'rlardan tiriladi, ulardan o'rganadi. Lekin o'z xulosalariga ko'nmaydi va bilganlaridan-da o'zgacharoq bo'lgan o'z so'zini axtaradi. So'z qirralari esa uni aslo tinch qo'ymaydi.

Bugungi yoshlar ichida uning qalami borligiga va eng muhimi, uning qalbi borligiga ishongimiz keladi. Farruxning So'z yukini ko'tarishdagi qadami va qalami dadil bo'lsin.

Zebo MIRZO,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoira.*

FASL

Bir fasl izlasam, entikar
kuzdan nari, bahorga yaqin,
bir kenglik istasam tentirga,
tushovi yo'q dengizdek ayqin,
izlam izi yo'qolgan mahal,
zamin mendan burganida yuz,
supurgida gullaydi bahor,
xokandozda qovjiraydi kuz.

Albatta keladi o'sha kun sang'ib,
Bir burda non tilab turgan yetimday.
Unga yuragimni bog'layman tang'ib,
Poyiga jonimni to'kmoqlikka shay.
Xayolga xalaqit bermaydi dunyo,
Tushimda shodliklar topmaydi barham.
Ko'zimni ochmayman o'sha tun. Hatto
Ottirmayman aslo tonglarini ham.

TAXAYYUL

parda uzra qaltiraydi tun

oy yorug'i

ko'rpa tagida

nekbin xayol surasan uzun

kimningdir kelishi haqida

xayol telba

xayol bemantiq

boshlab kelar qay bir makondan

kutganingni

tasavvur otliq

paydo bo'lar

kutilmaganda

xayol yorug'

xayol musaffo

ko'kka yetar tufroq qadaming

dunyo sharob shishadek

shaffof

kelmasa bas kutgan odaming

Ne riy **BOLALAR UYIDA**?

Shamollar supurgan hovlini,
Ko'tarilgan zamindan g'ubor.
Qari tollar tongda hovliqib
Go'dak kabi odimlar ilk bor.

Chashma cho'zgan bo'yin samoga,
Parvoz faqat qushga emasdek.
Har zarraning yo'li Xudoga,
Bunda gunoh parvoz etmaslik.

Yerda ne bor bundan tashqari,
Barchasiga kun bitdi qanot.
Osmon to'ldi – osmon ichkari,
Qolmagandek tuproqda hayot.

Hatto zamin ertami yo kech
Qaysidir osmonga yo'l olar.
Faqat uchib keta olmas hech
Laylak tashlab ketgan bolalar.

Mayli, meni sochib yubor, Yer,
Tuz sepib yangila yaramni.
Ko'zlarini darg'alarga ber,
Nay dilib chal so'ngalarimni.

KURASH

Shamollarni oldim yelkalab,
Qanot bitdi qo'sh qovurg'amga.
Manglayimga quyosh bosdi lab,
Peshonamga urildi tamg'a.

Yo'llar berdi yo'llar daragin,
Manzilsizlik daydiga viqor.
Ko'kragimni yordi yuragim –
Tig'iga sig'madi zulfiqor.

Garchi yo'llar bo'lmaydi mag'lub,
Yuragimni chumchuq cho'qidi.
So'ng shamolda tahorat olib,
Tut bargida namoz o'qidi.

Men-chi, qoldim cho'qilgan yurak,
Yo'l izlaydi hanuzki loshim.
Menga faqat bitta yo'l kerak,
Bir daydirlik qoldi bardoshim.

Mayli, meni sochib yubor, Yer,
Tuz sepib yangila yaramni.
Ko'zlarimni qarg'alarga ber,
Nay qilib chal so'ngaklarimni.

Ne riyoza haqni topguncha?
 Bu shunchalik bedavo dardmi?
 Taqvo degan joyga yetguncha
 Kimningdir yuragin
 cho'qishim shartmi?

SHOIR

Qorong'u uy – yorug' turmushi,
 tamaki qistirgan tishiga,
 qoyillatmas davlat yumushin,
 yaramaydi dala ishiga –
 gar o'lmasa, ko'radi kunin,
 oshqozon deb qilmaydi tashvish,
 yo'q, dangasa atamang, uning
 vazifasi vatanni sevish.

Uyida non topilmagan payt
 she'r yozishga sarflaydi kuchin
 va hamisha chekar xijolat
 sizga o'xshamagani uchun.

ME'YOR

seni sevishim mumkin
tomog'imdan o'tajak
so'ng nafas ichra

seni yashashim mumkin
xudosizlikdan
xudogacha bo'lgan yo'l uzra

seni kutishim mumkin
ketganingdan to
kelmasliging lahzasi qadar

so'z bilan o'ynashgan men bir munofiq
she'rdan bo'lagiga yetmaydi qurbim



Mayli, meni sochib yubor, Yer,
Tuz sepib yangila yaramni.
Ko'zlarimni qarg'alarga ber,
Nay qilib chal so'ngaklarimni.

AROSATDA NAJOT

Bu na quvonch erur, nainki uzlat,
Unutsam ming yillik saboqlarimni.
Men – mazlum! Yaxshisi, kel, kishan uzat,
Qaychilab tashlayman qanotlarimni.

Garchi qo'llarimda ingrar ixtiyor,
Sendan olib ketar yo'laklarim berk.
Zilol!
Nahot seni qilsa baxtiyor
Oyna siniqlari tasvirlagan erk?

Ne iqbol, tap tortmay kechsam loshimdan,
Ruhga tilanmasa tilanchi jismim?
Jannat ichidami yoki tashida
Tabiiy tovushda yangraydi isming.

Eng achchiq baxtdami, eng shirin dardda
Tiynatim zanjirni sevib qolgan payt,
Arosatda qolsam, menga bir marta
Xudoni eslat...

AROSATDAGI ODAM

Na yashab bo'ladi, na bo'lar o'lib,
loshing o'zganiki, joning Haqniki –
qolarga qo'nim yo'q, ketarga yo'ling,
qolmoq azob berar, ketmoq – tahlika.

Faqat yashash mumkin zanjirni quchib,
yana orzu bilan qalbni tilkalab,
she'rni vatan kabi suyganing uchun
otang ayblasa bekorchilikda.

Sira topolmaydi ko'ngling bistarin,
bir gunoh muqarrar, bir foje uryon –
na-da taqvo, na-da isyon,
istaring
odamsiz, o'limsiz uchinchi dunyo.

Asli qay manzilda bo'lsin olaming,
qaysi o'y fitrating etmasin ado,
yashashga yetadi bitta qalam-u
bir parcha qog'oz-u va bitta Xudo.

SODDA

Yo'lga otlangan u po'rim kiyimda,
sochlar taroshlangan, soqollar ko'sa,
shahar bog'idagi haykal yonida
uni kutib turar birinchi bo'sa.

Mayda qadamidan xayoli shaxdam,
qiz qo'lin tutmagan sodda toifa,
o'ylar o'zin qanday tutishin har dam -
she'r aytib bersinmi yoki latifa.

...Shirin so'z qidirib kalovlanma ko'p,
taomilga ko'ra gul uzat serbarg,
she'rga balo bormi, yuzlaridan o'p,
unga sira yoqmas modern she'rlar.

Borib qadrga qadrga qadrga
Tun so'gib qadrga qadrga
Meni qadrga qadrga qadrga
Sen surtib qadrga qadrga qadrga

Barcha rangni sarflayman tolib,
Ortig'iga yetmas jur'atim.
Meni sevib qolsin, ishqilib,
Seni tasvirlagan suratim.

UZR XONLAR

Bexijolat! Yashar o'lmasa,
 bitta uzr – tugaydi o'yin.
 Uzrxonlar, juda bo'lmasa,
 o'rningizdan bir turib qo'ying.

Qarab o'tirmangiz ko'nliga,
 qo'rqmang, ular qoldi o'rganib.
 Xudo va xalq o'zin yo'liga,
 vijdon qabul qilsa bo'lgani.

Aytib-aytib tinadi zori,
 qamchi bosing qorin g'amida,
 xalqni talab to'ymasa qorin,
 bolangizni soting kamiga.

Baribir rahmat aytishar bekin¹ –
 go'yoki suv bosgan cho'ldiyor,
 dindan kechib ketgandek erkin,
 Xudoni topgandek baxtiyor.

¹ *bekin* – kinsiz, ginasiz.

SILUET

Tebratadi pardani shamol,
 Rang izlayman tongdek munavvar –
 Men surating chizishim darkor
 Soyang sinib qolmasdan avval.

Sening sirli siyrating o'jar –
 Rangsizlikka qilmaydi toqat.
 Ming xil rangni pardaga sochib
 Lablaringni chizaman faqat.

Yana bo'yoq izlayman sarson,
 Chalkashadi janub, shimolim.
 Senga qay rang qilayin ehson,
 Zilolim...

Borliq vaqtga qilmaydi amal,
 Tun soyangda qotar o'rtanib.
 Men surating bitirgan mahal
 Sen surib qo'yasan pardani.

Barcha rangni sarflayman tolib,
 Ortig'iga yetmas jur'atim.
 Meni sevib qolsin, ishqilib,
 Seni tasvirlagan suratim.

MOVIY MANZIL

Bobur Sher o'g'liga

Bir qatim nur kirgan xonadan
 Supurib tashlayman zulmatni.
 Qalam horg'in, qog'oz qonagan –
 Yo'qotadi g'oya hurmatin.
 Ilhaqlikni o'tganda yengib,
 Xayolingni butlab qaraki:
 She'rdan chiqqan hur ko'ngil endi
 To'kis baxtdek aksiltaraqqiy,
 Chunki tugal bo'ldi kechinma –
 Sochilmagan nafrat qolmadi.
 Hozir tilga kirgan har nima
 Shoirning kechikkan omadi.




HOVUR

Bir qo'shin mudraydi ichimda,
 Bir qo'zg'olon saqlaydi sukut.
 Kimligimni eslatar chimdib
 Kiftimda tin olyotgan burgut.

Fitratimda, har bir qadamda
 Ro'y bermagan bir foje – mushtoq –
 Don cho'qiydi tor peshonamdan
 Janubini yo'qotgan qushday.

Yashash uchun kerakdir o'lish,
 Xoliq uchun kelmasa malol.
 Ming tilanib erishganim shu –
 Isyon degan bir raddi balo.



ANGLAM

Kenglik deya yashaydi ko'ngil,
Uzunlikka intilar idrok.


Kenglikning yo'q chapi va o'ngi,
Uzunlikning oxiri so'roq.

Bir-birini rad etar masrur,
Bir-biriga qilmaydi toqat.

Yot g'oyali bu ikki unsur
Teranlikka sig'adi faqat.

Kenglik biroz hirs tabiatli!
Uzunlik kibrga moyilroq!

Demak,
Taqvo bo'lsa kerak Teranlik...



G'OYA

Fikrating pand bermaydi, ya'ni
Tashlash mumkin qadamni dadil.
Yo'l-yo'lakay olarsan tanib,
Bunda faqat g'oya mo'tadil.

Kim ekaning hech muhim emas,
Taqvodormi yoki bir dahriy.
Boshqa gaplar bari bema'ni,
Sen g'oyangga Xudosan, axir.

Faqat unda tirikdir tarzing,
Faqat unda dahosan, zo'rsan.
G'oya uchun yashasang arzir,
G'oya uchun bo'ladi o'lsang.

Tongsirar zaminga bergani ajrim.
Maydalashib...
Xususan, yurakka joylasar, solsang.
Barchasin ichingga yutsang o'rtanib,
Tashqarida esa faqat... she'r qolsa.

* * *

Turtib chiqdi ko'zimdan ko'ngil,
Jilovini uzdi hissiyot.
Chapdan keldi tushlarim o'ngi,
Qovurg'amni sindirdi qanot.

Bir manzilni etmadim vatan,
Tunlarimni yashadim uyg'oq.
Tafakkurga orqa o'girib,
Yuragimga botirdim tirnoq.

Endi telba qilar ruhimning
Muvozanat degan mezoni.
Na yutib, na tuflay olaman
Tomog'imga tiqilgan jonni.



* * *

Gunoh!
 Uning e'tiqodi bor.
 Gunohning e'tiqodi intiluvchanlik.
 U intiladi.
 Gunoh ongga intiladi.
 Ongli har ne gunohkorlikka mustahiq.

BAXT

Rafiq O'zturkka

Yorug' tong tomchilar tun ko'zasiga,
 Zebo qaldirg'ochlar kuylar valfajri.
 Teskarilgan dunyo qaytar asliga
 Tongsirar zaminga bergani ajrim.
 Maydalashib ketar yerning ko'lami,
 Xususan, yurakka joylashar, solsang.
 Barchasin ichingga yutsang o'rtanib,
 Tashqarida esa faqat... she'r qolsa.

ISHQ

Tillanisoga

1

Toshning vujudida jon saqlash mumkin,
Ruhni jilovidan bo'shatib abad.
Bunda na tadrij bor va na inqiroz,
Na betartib isyon, na muvozanat –
Lekin ming yil burun dunyoga kelgan
Har toshning ichida bitta bo'shliq bor.

2

Tilkalaydi osmonni zada,
Bulutlarni qarg'aydi uzoq.
Ikki bo'shliq oralig'ida
Osmon yaqin va zamin yumshoq.
Yelkasiga qanotlari yot,
Hur parvozlar ruhiga og'u.
Tuzoqlardan izlaydi najot
Ozodlikdan zerikkan oqqush.

XULOSA

Men – kurashlar ichra yashayotgan hur,
Yuragimda fotih tig'ga tavajjuh.
Axir, oson emas yashamoq, axir –
Idrok va hissiyot aro talosh tug'.

Qanday kuch mujassam tayanch nuqtada?
Bitilgani sayoz, bashorat teran.
Tafakkur dunyoni bilgan nuktadon,
Ko'ngil hali dinga kirmagan eran.

Ne isyon erur bu,
Bu kurash nima –
Bayrog'im moviy qon, tig'im zulfiqor.
Menga tus berguvchi har bir kechinma
Tun misoli ezgin, tongdek zulxumor.

Ikki taraf endi bu dunyo malol,
So'roqlar (?) dol bo'lib yaralar – nayza.
Tafakkur shaklida essa gar shamol,
Dinning sur'atida tebranar mayssa.

HAYDALISH

Qon simirar yuraging
 Jomdan sharobdek,
 Kashkulingga sig'maydi
 Eng so'nggi diydor.
 Biroz uzoq qolishing
 Mumkin edi, lek
 Qulog'ingda
 Ket degan so'zning hidi bor.

BIZGA

(Tengdoshlarga)

jarayon sur'ati urushdek qizg'in
 visol oni kabi jarayon hurkak
 ikki tanlov voqe
 jarayonni jim
 kuzatmak va yoki kurashga kirmak
 har ikki qayriliq ming og'u bersa
 har birin ortida ming tur zarurat
 jimlik ikki hissa farosat tursa
 kurashmoqqa kerak uch hissa jur'at

TARADDUD


Yo'l tuzaman o'zimga uzoq,
 Xaritalar chizaman mavhum.
 Bir qaror iroda etaman,
 Biroq
 Bezovtalik gavjum:
 Safarxaltam juda ham kichik –
 Joy olmaydi kerak narsalar.
 Vijdonimga ketdi sochilib
 O'yini unmagani qartalar.
 Faqat fikr sig'ar nari-beri,
 Yana tuyg'u – bir siqimgina.
 Turpoqdan
 Og'zimga bir chimdim terib
 Olaman qand kabi shimgani.
 Qaytmaslikka ichaman qasam,
 Xayr-xo'shlashaman bir ezgin.
 Kashkulga ne sig'di?
 Qarasam,
 Vatan degan bir umumsevgi.

SHE'R ISHTIYOQI VA SO'Z EHTIYOJI XUSUSIDAGI NIMARSA

Gungdek kalovlanar ruhda iltijo,
Ishtiyoq tomirda yoyadi kurtak.
Umuman, har nening sirtida hijob,
Xususan, noboproq keladi yurak.

Osmonga oyoqlar oqsoq tafakkur,
Isyon o'tar ongosti chizgan chiziqdan.
Bu gal nishon o'zga, yot bir tatabbu –
Mavzu favqulodda dolzarb, qiziqqon.

Kechinma ko'ngilni etarak tavof,
Qalampir tusaydi zabon muttasil.
Ruhning ifodasi yanada shaffof –
O'lim hukmi yanglig' tugal, batafsil.



har ikki qayriliq ming og'u bersa
har birin ortida ming tur zarurat
jimlik ikki hissa farosat tursa
kurashmoqqa kerak uch hissa jur'at

HUR

U dunyodan chekindi badar,
 Qo'llarini chopdi uning tun.
 Shum taqdirning shu kunga mahtal
 Arqonida ko'paydi tugun.

Bir malak deb sipqordi sharob,
 So'nggi foje bo'lgandi sodir.
 Gulni latta-puttaga o'rab
 Olib ketdi bir qora botir.

Yuragini paysaladi jim,
 To'kmoq uchun qoldi so'nggi qon.
 Lanj ruhida uyg'onib samum,
 U hushiga keldi bir zamon –

Qizil bo'ldi ko'zlarin rangi,
 Qo'li mushtga tugildi qattiq;
 Eski shiftning ostida gangib
 Qon hidladi yangi chimildiq.

O'zimdek yovvoyi shamolni minib
 Ke-e-etsam!

SOFLIK

Nafratning ta'mini bilmagan ko'zlar;
gunohsiz qo'llardan uzilgan zanjir;
tildan to'ramagan bir og'ir so'zlam;
qonning iforini tuymagan xanjar;
ichilgan qasamda tosh qotgan lahza;
visoli sazoyi bo'lgan ilhaqlik;
faqat xudosi bor, xalqi yo'q mazhab;
asliyatdan avval tug'ilgan taqlid;
zamonning yuziga qum sochgan makon;
xizmatiga rag'bat ko'rmagan savob;
puch e'tiqod – imon keltirilmagan;
faqat o'z kovushin tanuvchi avom;
Haq deya manglaydan oqayotgan qon;
sinmagan iroda; bo'g'ilmagan erk;
dinning yo'rig'iga yurmaydigan fan;
siyosatning hidi kelmaydigan she'r.



ISHTIYOQ

Ko'ngil yiqiladi yo'lni changallab,
Qirs etar! O'qidan chiqib ketar yer.
Nechuk ovvoraman bororim tanlab?
Yo Rabbiy! Bandangga bitta manzil ber!

Suvdan yuragimni ko'tarar g'alvir,
Yo'lsirar oyoqda yirtilgan kovush.
Axir men sayyohman, sayoqman, axir,
Qafasga moslashib ketolmagan qush.

Ortimdan ergashmas – oliy nasabi,
Atvorimga sira qilmaydi toqat.
Ikkiga bo'linar zamin asabiy –
Tursam azob,
Yursam mazammat.

Sarkash ruhunatni ololmas eplab
Dunyo dun – beixlos menga siltar qo'l.
Qafasim bezanjir – to'rt tomon qibla,
Ko'zim yo'l!
So'zim yo'l!
Dilim yo'l!
Din yo'l!

O'zimdek yovvoyi shamolni minib
Ke-e-etsam!

Borlig'imni borliq unutsin!
 Biyday kengliklarga sig'mas loshimni
 Yo'l yutsin!
 Yo'l yutsin!
 Yo'l yutsin!

* * *

Yoddan chiqar hamma-hammasin,
 Ko'klamlarga qilmagin araz.
 Bu gal o'sgan gullarning sasin
 His qildingmi hech yo'q bir nafas.
 Lolalarga ochib ber quchoq,
 Qaldirg'ochga yoril dardingni.
 Unut qishning zahrini mutlaq,
 Osmonlarga qo'l uzatdingmi?
 Xalal bermas bu safar hech kim,
 Sen gullarning umrini tila.
 Men bahordan iltimos qildim,
 Ko'proq qolar bu gal biz bilan.

* * *

Nigohimni yopar uch kunlik hilol,
 Shamol xayolimga yugurtirar musht.
 Chap ko'ksimni o'tday kuydirib chunon,
 Osmonsirab yig'lar yaralangan qush.

Ko'zyoshlar ishqori o'yar ko'zimni,
 Tasavvur azobi sug'uradi jon.
 Qachon topajakman bunda o'zimni,
 Mening fitratimda tong otar qachon?

Butkul ibtidoga qaytaman abgor,
 Toshdek cho'ktiraman ruhni yurakka.
 Qalbni uyg'otguvchi yana nima bor
 She'rdek sodda,
 She'rdek murakkab?!

Taqdir shu! Tikaman dorga boshimni!
 Oxir telbaligim ustuvor kelib,
 Ketaman she'r izlab, bir kun loshimni
 She'rsiz kunlarimga sadaqa qilib.

UYG'ONISH

Ko'zyosh qirralari botdi ko'zimga,
Ming yillik qonimda ko'pchidi tug'yon.
Achchiq bir kinoya keldi izimdan –
Uyg'on!

Og'ir hayqiriqdek otdi so'ng sabuh,
Asrlik g'aflatni kechdim asabiy.
Men jangari edim, qo'llarimdan tig',
Lek qay choh yutgandi Alpomish kabi.

Ey tarix! Mana men! Nafratingni sun!
Darveshsaro ko'nglim etmas tijorat.
Qisqa umrimdagi xatolar uzun...
Xijolat...

Idrokim oqsadi, qiynaldi jonim,
Adashdim! Ne qonga edim zurriyod?!
Yerdan izlarimni yo'qotgan kunim
Oyning yuzlaridan topdim zumurrod.

Ko'zyoshlar quridi, ko'zlarim tindi,
O'zimni kashf etdim – sahroyi, tajang.
Yarqiroq tolega bitgani endi
Jang...

Barcha chegarani buzdim nihoyat,
Bosgan izlarimdan qabardi azob.
Endi ko'nglimdagi har bitta g'oya
Sazoyi qilingan qul kabi ozod.

Quyosh so'zlarimga ato etdi jon,
Har zarra tuprog'im taqdirga tum-m-mor.
Uzoq ilhaq qildi ko'zimni bu tong –
Zulxumor...

Qayda g'olib esam, qay yerda mag'lub,
O'zim istagancha qursam dunyoni,
Kesik bu boshimni bo'lmaydi egib,
Tarbiyalab bo'lmas hech vaqt isyonni.

QUYOSH

Qayerdayding butun qish bo'yi
Kiprikkacha muzlayotgan chog'.
Bulutlardan hatlagan ko'yi
Tashlamading yerga bir nigoh.
Endi esa turibsan jilmay,
Bu dunyoning otash tandiri.
Tuyg'ularim qoldi yax bosmay,
Sen ularni qo'yma yondirib.

ERK

(So'z isyoni)

Ilohiy ishq bo'ldim maydan to'ragan,
 (na dunyo, na dinga edim taalluqli)
 Vujudim sahroyi bo'ron o'ragan
 Kuyukdil, olovko'z – Quyoshning o'g'li.

Qayta tirilmoqqa yetmadi sabrim,
 Har bir qo'zg'olonim ko'ksimda zuhur.
 Ko'zlarim juvonmarg so'zlarning qabri –
 O'liklar bo'zlayur, bo'zlayur og'ir.

So'z bo'lmoq istadim – achqimtir, biyron!
 Hali kashf bo'lmagan, aytilmagan so'z.
 Qay zamon tovushga aylandim giryon,
 Suyaksiz bir tilda bo'ldim talaffuz.

Necha quloqlarni kezdim sharpadek,
 Qaysi yuraklarda qildim g'alayon.
 Bir bor tug'ilganda ming karra hadik –
 O'limdek muqarrar bo'hron namoyon.

Qanday ko'rinishga keldi ravishim,
 Eng og'ir jumboqdan yaraldimmi yo?!

Ildizim maqtovmi, qora qarg'ishmi,
Na suyuq, na quyuq – g'alati kimyo.

Meni pichirladi lablar ohista,
Kim qo'rqib, kim yig'lab, kim esa vazmin.
Jismimni ming tildan terdi-yu asta,
She'rga aylantirdi Rab al-Olamin.

Qancha dilga tikdim og'och, dorimni,
Axir, men so'z edim – shoir aldamas.
Birma-bir sindirdim suyaklarimni –
Mohiyatga yuqdi ilmi handasa.

Bilmam, qaydan foje bo'ldi bu udum,
Fikratimga yolg'iz bir unsur ayon –
Bo'yin egajagim ilk dunyo – bu din,
She'r – men ko'tarajak eng so'nggi isyon.



RABBONAM

Cho'g'dek titkiladim kuygan dilimni,
Bag'rim suv sepilgan o'choq, Rabbonam.
Afsus! Tiyolmadim zahar tilimni –
Butun koinotim so'roq, Rabbonam.

Qara! Sarkash chiqdi sensiz hayotim,
Darveshdil siyratim ko'rmadi karam.
Endi tegramdagi bori bisotim
Yuragim osilgan sirtmoq, Rabbonam.

Bugun kunlarimdan kunlarim g'oyib,
Bugun ishqiloh ko'ylaklari nam.
Kecha kimlarnidir yig'latib qo'yib,
Biroz shirin edi kulmoq, Rabbonam.

Isyon ko'tarmoqda qirq ming tomirim,
Tasavvur qoldig'i – butun g'amxonam.
Sensiz sovurilgan har lahza umrim
Bigizga aylangan barmoq, Rabbonam.

O'zim zolim shoh-u, o'zim xoksor qul,
Koshonam – fikratim, ko'ngil – vayronam.
Titrayman! To'rt tomon ko'zgudir nuqul,
Men – bandang! Shunchalar qo'rqqoq, Rabbonam.

Yaxshiki, bir marta yashayman, xolos,
Dunyodan bir marta o'taman mulzam.
Senga aytilajak har sas, har ovoz
Hech vaqt tinmaydigan titroq, Rabbonam.

Tortilgan nadomat – tuzlangan qamchi,
Jarohat sirqirar, bitmaydi qonab.
Kiprigimga har bir osilgan tomchi
Ummonlarga do'ngan irmoq, Rabbonam.

G'ofil qolaverdi maysirab ko'nglim,
Jomma-jom, ayshma-aysh bitdi nishonam.
Meni tomchilatib tugatgan sevgim
Ko'zlari o'yilgan Shiroq, Rabbonam.

Netay, har o'ngimga berilgan chapman,
Meni kechagidek tanimas onam.
Qo'limni ko'ksimdan ololmayapman,
Kaftimga sanchildi pichoq, Rabbonam.

Ne anglam bor yana o'zingdan oldin,
Sujudim bir senga – sengaman qaram.
Allaqachon o'zni yo'qotib bo'ldim,
Toparim bitta kaft tuproq, Rabbonam.

TAVBA

Tinmay qarg'ish eshitsam endi,
Endi gunoh qilsam miriqib,
Yozganlarim so'ngak misoli
Tomog'imga qolsin tiqilib.

Nom-nishonim unutsa har kim,
Archib olsam yurak po'stini,
Og'riq aro e'tiborsiz, jim,
Xotirjam yashayman o'ksinib.

Siyratimni suymasa solih,
Hech kunimga bo'lmasa karam,
Jabbor sevar – bir kuni yo'lsiz
Ibodatga qaytsam lojaram...

So'zlarimni bo'lmasa tinglab,
Ko'zlarimni bo'lmasa o'qib,
Bir pand ko'rib tiyilsa tilim,
So'z kuchidan boshlasam qo'rqib.

Shunday kechsa barchasi silliq,
Ertami-kech chiqarsang qanot.
Kutishingga arzisa o'lim,
Ketishingga arzisa hayot.

(TAGLAVHA)

aytilmagan qoldiq so'zlarim
to'kilmagan ilhaq ko'zyoshlar
yuragimning abad bo'zlari
farhodlarga yumush bir toshloq

cho'llab ketgan giyohsiz taqir
chang qoplagan umid yo'llari
shafqat tilab uzalgan sag'ir
muallaq oh kesik qo'llarim

bir hissiyot tubanlashmagan
bir muhabbat bilmagan sarob
ming farishta etguvchi makon

so'zga do'nmas soqov aytarim
mening ming yil kutarim aro
sening bir kun menga qaytaring

(AHVADAT) * * *

Yarashardi kecha yig'lasam,
Osmonni zabt etardim borib.
Sal ertaroq kelardi ko'klam
Sal kechikkan baxtni ko'tarib.

Bugun bosgan izlarim ofat,
Bag'rimda muz, boshimda shamol.
Yarmim isyon, yarmim halovat,
Seni qanday etayin ishg'ol?!

Sabrim bitib xunobim ortar,
Bir juft so'zga tugundir tilim.
Taqdir dangal qo'yadi shartlar -

Biroz qisqa bo'ladi umrim,
Biroz uzun keladi dardlar,
Biroz baxtli yasha; Sevgilim...

Bir pand ko'rib uyilsa tilim,
So'z kuchidan boshlasam qo'rqib.

Shunday kechsa barchasi silliq,
Ertami-kech chiqarsang qanot,
Kutishingga arzisa o'lim,
Ketishingga arzisa hayot.

UMIDNING QIYOFASI

Yana ostonamga kelar suqilib
Yashashga xalaqit berguvchi bir kuch.
Jonim tomog'imga qolar tiqilib
Yoki yuragimda boshlanar xuruj.

Seningdek keladi u ham da'atan
Yoki xat jo'natar kutilmaganda.
U taqdir bo'ladi – berilmagan tan
Yoki itoatsiz dahriy bir banda.

Lekin qadamlari ko'klamday qutlug',
Sen uchun meningdek ko'tarmas yohu.
Hali qiynalmagan, ko'zlari quruq.

Keldim deb eshikdan bosh suqsang bir kun,
Na muhabbat tirik, na tirik Farrux,
Tiriklik qoldig'i bo'lar faqat U...

YASHALGAN KECHINMA

Nega qishlayapti ko'nglimda bahor,
Nega bunga sira kelmas parvoying?
Axir, ko'zlarimda eng buyuk mung bor,
Nega "negalar"i bitmas dunyoning?

Yomg'irpo'sh ostida sop-sovuq g'ashlik
Ko'ksimni kuydirib yashar issiqroq.
Men kimning? Kim mening? Qora chalkashlik...
Yoki so'nggi najot yo'lmi – istig'roq.

Chanqoq bosay dedim, ichdim qonimni,
Bir bor tug'ildim-u ming bor adoman.
Rumiy tasbehi va Xayyom jomining
O'rtasida qolgan vatangadoman.

Ko'zimga sochildi bir siqim tuproq,
Asrlab yashadim oniy tushimda.
Sochimning oqlarin sanadim mushtoq,
Hassaga tayandim yigit yoshimda.

Qo'limda qaltirar sarboziy xanjar,
Lekin yuragim yo'q sancharga, axir.
Sensiz o'lmoqchiydim... bermadi zahar
Jalil Jabbor yashatdi oxir...

Mensiz sal yengilroq tortmaydi dunyo,
Men bilan qolmaydi u og'irlashib.
Yashamoq ilojisiz sendan mosuvo,
O'lgan bilan ham hech bo'lmas erishib.

ILOJSIZLIK

Uyg'oting uyqudan, uyg'oting meni,
Sillamni quritdi tushlar zalvori.
Cho'kib borarmishman daryoga besas,
Ajral otliqlari ketmaydi nari.

Uyg'oting uyqudan, uyg'oting meni,
Oqargan yuzimga suvlar sepingiz,
Ko'zimni ochayin kech bo'lmasidan,
Jarga qulayapman, vaqtimiz tig'iz.

Ko'zim ocholmayman, ruhim g'aflatda,
Yirtqichlar haydaydi olovga surib.
Bu ham yetmagandek, kimdir ataylab
Allalab chiqadi boshimda turib.

U...

So'ng bor qo'llarimni uzatdim ilhaq,
 Bittalab yashadim kipriklaringda.
 Butun koinotni ishg'ol etdim naq,
 Ko'zimdan kamalak chiqardim. Qara!

Hur-hur shamollarni yutdim yamlamay,
 Poyingga oshiqdim to'kilmoq uchun.
 Sen yo'q dunyosiga o't qo'yaman deb
 Hatto kesaklardan chiqardim uchqun.

Endi darveshlikmi taqdiri iloh,
 Sendan qolgan dunyo tutqazdi kashkul.
 G'azabing kelmasin, yo qodir Alloh,
 Gulsiz mumkin yashash. Yashnamoq mushkul.

Bunchalar murakkab, bunchalar sodda
 Senga gizlanmoqlik alami abad.
 Sensiz o'lmoqlikni bilaman yoddan,
 Sensiz yashamoqlik ilmini o'rgat.

Umrnim she'rlaringga boradi enib,
 Ta'qib etaverar tim qora g'ashlik.
 Bugun sen yo'q! Qay dard kemirar meni,
 Shuhratparastlikmi yo jununvashlik?

Ochun nedir, Jonim? Umr, qayg'u-chi?
 Fikratim basirdir, aqlim vayrona.
 Hayot –
 Har kim shoshilinchda kirib chiqquvchi
 Notoza saqlangan noilojxona.

Endi kulgichingda yig'lab yashayman,
 Endi yashamog'im bir jumboq, tilsim.
 Endi eshigingni, balki, qoqmayman,
 Illo, yozganlarim bezovta qilsin.

QISHLOQ

Afsus, xudbinligim zo'r keldi yana,
 Yana o'zim tomon yuz buraverdim.
 Ichimdagi shayton qilar tantana,
 Boraman dedim-u, so'z beraverdim.

Yillar xotiramga solmadi soya,
 Men hamma-hammasin unutvordim jim.
 O'zimning yo'limni topaman deya,
 Senga borar yo'lni unutib qo'ydim.

SEN HAQDAGI TUSHLARIM

Masrur kuy chaladi eski iztirob,
Yalovin ko'tarar qayta tund g'ashlik.
Ko'nglimda nimadir jon berar xarob,
Ko'ksimda bir ajdar o'kirar achchiq.

G'amangiz tushlarim ruhimga qafas,
(Bunda yashamadim. Balki, men o'ldim)
Meni tiriltirdi masihiy nafas,
Bugun Havoriyman – Isoni ko'rdim.

Ne uchun to'lg'onib yig'ladim tinmay?
Na dunyo, na dinning bo'lmadi ishi,
Men esa she'r yozdim gunohin bilmay,
Yukinmoqqa mavrid bermadi tushim.
Endi bizga og'och tiklar bildirmay
Bebismilloh tuyg'ularning qarg'ishi...



Umrim shu op'ingimda yashod senga
Ta'qib etaverar tim qora g'ashlik.
Bugun sen yo'q! Qay dard kemirar meni,
Shuhratparastlikmi yo jununvashlik?

Hali topmadimmi o'zimni, nahot,
Shu xavf chaqirib... aridek.
Va yara bitmaydi, qonaydi bot-bot,

Nihoyat to'xtadi vaqtning ertagi,
So'nggi yaproq bo'lib to'kildi xazon.
Sensiz uyg'onishim kerak ertaga –
Azob... Azob... Naqadar azob...

Sen yig'lab bo'lgansan. Yashab bo'ldim men.
Tilda kalimaga eng so'nggi so'zlam.
Bo'zladim! Izladim! Hozir yelkamda
Topildiq qo'lida jon bergan izlam.

Qaysi bir manzilda adashdim ekan,
Borlig'imni yo'qlik olmoqda tortib,
Qaytmasliging dardi shunchalar ulkan.

Na umrimda to'zim... xayolda tartib...
Nima bu? Yolg'izning yo qahrimikan –
Sensizlikni topdim seni axtarib...



SENVILARIM EVRILISH

Oxirlab boryapti bu vaqt pistadek,
Cho'ntagimda esa o'sha so'z yolg'iz.
Ko'nglimni ovlaydi chirkin alvasti,
Xunuk alla aytar bukri yalmog'iz.

Qayga yetaklaydi vaqt degan hakam,
Balki, yashamasman o'zim o'zimda.
Kecha beshtosh o'ynab yurgandi opam,
Palaxmon toshiga aylandi zumda.

Shamol tomoq qirar, chorlaydi ko'cha,
Vaqt izn bermaydi, yuragim qonmas.
Ko'nglim qaydan kelgan, talpinar qayga,
Yaratgan biladi, yaratilganmas.

Imonim ostida qaynaydi gumon,
Xayol ming bo'lak, lek sujud bir, Haq bir.
Ko'nglim tortar ko'ngil xushlagan tomon,
Gunohimdan o'tsin Alloh-u Akbar.

Qismatim kasrmi, og'ir hisobi,
Surati – uch kunlik umr beg'ubor.
Qolgan qismi undov, ki maxrajimda
Meni ming bo'lakka bo'lguvchi dard bor.

Hali topmadimmi o'zimni, nahot,
Shu xavf chaqib olar qovoq aridek.
Va yara bitmaydi, qonaydi bot-bot,
Zurriyodga muhtoj bepust dardidek.

Yerga og'ir botdi ishqparastligim,
Nega osmon yig'lar, chaqmoq qayrar tish,
Kimdir qarg'ar bunda va alqaydi kim –
Alomatim gunoh, mohiyatim ishq.

Ko'zingni och deya necha tong otgan,
Qurbonlikka bo'ldi nelar muhayyo.
Meni olim yaratmagan Yaratgan,
Orif bo'ldim, seni angladim dunyo.

Lekin bir anglam bor – tushunilmagan,
Bu – mensizlik – o'zsizlik – manzilsizlik
Va yana bilganim ko'ngil ko'chmanchi
Oyga yo quyoshga... qaygadir gizlik.

Endi karvon menga Samo va Vujud,
Qayta terib chiqay bo'laklarimni.
Ruhunating qayda, sen qayda, Farrux,
Yolg'iz eshitadi yana arzimni.

Meni o'ldirmaydi uch tomchi ko'zyosh,
Oldi-qochdi dard deb namlanmas qog'oz.
Bandasi yengilmas, yig'laydi faqat,
Jabbor jabr etmas, sinaydi, xolos.

SENGA

Tang'ib tanbalaysan yuraging endi,
 "Nega"lar keladi hech kechiktirmay.
 Suyaklaringgacha botgan muhabbat
 Bir dard bo'lib chiqib ketar sezdirmay.

Yana o'tmishlana boshlaydi xayol,
 Xotira osmonga urilar borib.
 Hech qanday o'zgarish yuzaga chiqmas
 Quvonchim kechagi, dardim-chi, joriy.

Suv sepilgan kulday sapchiydi o'ylar,
 Hayot yorib kirar xayol bag'riga.
 Qara! Sensizlikdan senlangan dunyo
 Bo'yoqsiz. Kimsasiz. Yolg'iz. Qarigan.

Kirib borolmayman yuragingga men
 Tomdan chakki bo'lib o'tgan yomg'irday.
 Sen qayda? Men qayda? Yo'lim sarsari
 Sandiqda qamalib qolgan Tohirday.

Na ko'zim, na qo'lim, na oyog'im bor!
 Ko'rolmayman, tutolmayman, borolmayman.
 Tilim yo'q! Kesilgan! Vujudim tutun!
 Har esgan shamolga bo'lurman mayna.

Sen tushsan ilohiy – Payg'ambari bor,
Men-chi, nomunosib, bemahal uyqu.
Seni ko'rolmagan ko'zlarim tashna
Ko'nglimni to'ydirgan xotirang yuqi.

Nega yetolmayman sen tomon, gulim?
Elakdan o'tmagan urvoq singari.
Sensizman! Gulsizman! Rangsiz – kuzdagi
Daraxtdek bechora, xazondek g'arib.

Chayon chaqib olgan ko'rimsiz umid
(och va to'yinmagan qofiya kabi).
Qachon va qayerda bo'laman taslim
(atayin qilganday tugamas sabr).

Qanaqa jarayon bu intizorlik?
Nima qilay? Kuyay, kulaymi oxir?
Yordek erkalaymi, do'stimdek suyay?
Hech bir jarayonning jinsi yo'q, axir.

Hozir qayga boqmay, so'roq va undov
(taqdir yana qanday ko'rsatar qiliq).
Kecha tovush bo'lib ketganding, erta
Xoliq qaytaradi aks-sado qilib.

Nigohimda g'ijimlangan xavotir,
Uning panasida uxlar soqov so'z.
Derazam ortida tong otayotir,
Kutmoqda eshigim orqasida kuz.

Meni ko'nglim kutar bundan tashqari,
Daydi xayolimni chayondek chaqar.
Kunim unga qolgan (men dalli g'arib),
Ko'nglim – hayot bergan mayda choychaqa.

Nimadir ko'ksimda – yomg'irdek taxir,
Nima u? Ko'zyoshmas ko'zimdan toshgan.
Kimga va nimadan noliyman, axir,
Men faqat tinglashga ixtisoslashgan.

Havoga sochilib ketmas ovozim,
Tutun yorib kirgan xayollarimga.
O'zim gunohkorman, men o'zim qozi,
Umidim kechagi isyondir – tingan.

Men bashoratchiman, o'zim ham bilmay
Tush ko'raman o'zni bedor tunlarda.
Lek hayotga qanday tasvirlab beray
Tushlarimni ko'rsam o'lik tillarda.

Qalbim qo'rg'oshindan qurilgan qal'a,
 Istaklar bir mohir tabibga taqlid.
 O'zim jon kiritgan har bitta alam
 Yashashga mahkum va yashashga haqli.

Shunday ekan, ular mening uchun ham
 Yashab bermoqdalar men kabi jimib.
 Men esa o'zimda yashayman faqat,
 Biroz torlik qildi dunyoning hajmi.

HALI

Yo'q! Hali kelmadik yo'lning so'ngiga,
 Hali qancha bedor tunlarimiz bor.
 Yana gunohkorlik maqomi uchun
 Bizga yetarlicha qo'nmagan g'ubor.

Menda yashalmagan umr bor hali,
 Sening yozilmagan she'ring bir dunyo.
 Tugab ulgurmagan iztirob gali
 Shuningdek, orzular – ko'rmagan ro'yob.

Hali og'riqlar bor – his qilinmagan,
 Azoblar qatma-qat – ko'rmagan vujud.
 Senda to'kilmagan ko'zyoshing uchun
 Menda qiynalmagan vijdonim mavjud.

MUHABBAT

Telbarib boryapman – “vujudim tutun”,
 Ko'ngilni titkilab charchagan aqlim.
 Kim qutqarar meni o'zimdanda bugun?
 Qaysi farishta-yu yo qaysi iqlim?

Yuragim tubida bordir bir izlam,
 U – sensan. O, Momo Havoyim – mushtoq.
 Lek qaysi burchakdan izlayman seni,
 Xudoyim yaratgan yerni yumaloq.

Ruhimda men bilan, mendayin zorli –
 Muqaddas sukunat – tilsiz, betovush,
 Va Rahmoniy tushlar. Sensiz. Zalvorli.
 (sen ishg'ol etmagan tushlarim – qarg'ish)
 ...Lek meni qarg'ishdan saqlab qolarli
 Teskari dunyoda o'ngarilgan tush...



ONA

Sen kuzatding ilhaq... Men esa ketdim,
 Ortda qoldi qishloq, bukilib qaddi.
 Sog'inib qolsam gar, o'zimga dedim:
 Sog'inch haqda yozsam, o'tib ketadi.

Sen qolding. Tilading ishim o'ngini,
 Yuragim ket dedi, aqlim ket dedi.
 O'sha on ko'nglimda ming xil kechinma,
 Ko'nglim cho'ntagimga o'xshamas edi.

Bahor qaytib keldi, men borolmadim,
 Kaftingda ko'kardi sog'inch degan dard.
 Ko'klamdan ham ko'proq sog'inding asli,
 Dardlaring buloqdek pok va lojuvard.

Ona bo'lolmadi menga keng shahar,
 Yuragim qayt deydi, aqlim qayt deydi.
 Achchiq ko'zyoshimga ishonmagan joy
 Onam yuragidan keng emas, ey dil.

Oxir dodlab berdim, faqat sen sezding,
 "Qayt bolam, kel", - deding, - sabring yetmadi.
 Sog'indim. Boryapman. Netayin, mana,
 Sog'inch haqda yozdim, o'tib ketmadi.

YOSHLIK

Tell
Ko'n
Kim
Qaysi
Qiyinayapti g'alat bir tuyg'u
She'rsiz tunlar iztirobidek.
Endi senga bermayman urg'u,
Yuragimda yashagan hadik.

Yura
U -
Lek
Xud
Qiyin ekan seni tasvirlash,
Nesan? Ko'zyosh, umid, oq bayroq?
Labing chizmoq uchun aralash
Xayolimda milyon xil bo'yoq.

Rukn
Muq
Va
Dardlar
(sen ishg'ol etmagan tushlarim - qarg'ish)
Zotan borliq rangga kirgan payt
Yuragingda bormidi araz.
Bilar edim, ko'zingdagi dard
Bir martalik yo'l chipta emas.

Le
Tes
Yura
Achchi
Onam
Garchi ravshan edi har qirrang,
Izlab o'yga o'tlar qaladim.
Sochingning tolasin chizolmay
Xayolimdan o'pkaladim.

ibam
Qayt
Sog'indim
Sog'inch
So'z ixtiro qildim sen uchun,
Qaysi mahal shamoldek kelding?
Sening ayni betakrorliging -
Bahordan ham boshqacha eding.

Nima bo'ldi, sezmay ham qoldim,
Qachon kelib-ketding sen yeldek?!
Sensiz qoldim, lekin umrimni
Yashab berdim o'rgatganingdek.

DENGIZDAGI QIZ

Dengiz toshib kelar qizning qoshiga,
To'lqinlar tiz cho'kar yetti bukilib.
Boshqacha bo'lishi mumkinmas, axir,
Eng go'zal qiz unga turar tikilib.

Egnidagi ko'ylak – bayroq alvonrang,
Tevarakda shamol yuborar sayrab.
Yuzini berkitar bir zumga quyosh,
Kumush dastagidan uzilar bayroq.

To'lqin yiqiladi chalqancha bo'lib,
Teskarilgan odat kelar hushiga.
Tomchilarga singib ketmoqlik uchun
Qiz toshib boradi dengiz qoshiga.

* * *

Har lahzani qo'ydim muzlatib,
 Tutib qoldim esgan shamolni.
 Qaddim keyin bukilmasin deb,
 O'lib ko'rdim yashashdan oldin.

Armonlarga orzular Masih,
 Armon esa ko'ngilga jallod.
 Meni biroz yupataman deb,
 Yuragimdan urdi bu hayot.

Men yashagan ming yillik umrim -
 Hayotimning birinchi jildi.
 Kecha kelgan minginchi bahor
 Ko'zyoshimdan sumalak qildi.

Boychechakdan baxt yasab oldim,
 Xayollarim bir ivirsagan.
 Mingta alamimni yubordim qamab
 Tamakining tor qutisiga.

Yosh boladay kuldim, so'kindim,
 Yurakda yo'q zarracha g'ubor.
 Dardlar tugamaydi, shoshib ne qildim,
 Axir, menda yana ming yil bor.

* * *

Tinch turmaysan (istamaysan ham)
 Bo'g'zingda otashni yutib bemajol.
 Dunyo bilan bazo'r tillashganing dam
 Sergak xayolingga qo'nadi shamol.

Yuraging – yomon tush ko'rgan bo'zbola –
 Ma'yus nigohingdan chiqadi unib.
 Ko'zyoshga aylanar eng nozik tola –
 Kipriging ostida asrandi umid.

Nimalar istaydi to'nyamoq ko'ngling
 Dovuldan oldingi tulpordek gangib?
 To'rar qora tushning ta'birsiz o'ngi.

Nigohing o'tmishda yuradi sang'ib.
 Cho'ntagingda yig'lar yulduz (eng so'nggi),
 Osmon yuragingga ketadi sho'ng'ib.

Yuraginmi osmonga joyla.

Armonlarning bo'yi yetmasin.

ORZU

Hayot to'xtab tursa, chekinsang bir zum,
Kaftingni to'ldirib xayol simirsang,
Bir tebranib olib to'ksang dardingni,
Po'lat xotirangdan ko'chib tushsa zang.

Yaltiroq nigoh-la boqsang dunyoga,
Har ne farishtaga do'nsa singlingdek,
O'ylaring uyg'onsa qushlardek notinch
Va buloq misoli musaffo va pok.

Faqat she'r kamligin anglasang bir on,
Bulbul gul dardida tinmay yig'lasa,
Ajab emas, shu choq his qilganlaring
Mingta shoir yuragiga sig'masa.



Yosh boladay kuldin, so'kindin,
Yurakda yo'q zarracha g'ubor.
Dardlar tugamaydi, shoshib ne qildin,
Axir, menda yana ming yil bor.

Nur uyg'ondi, darz ketdi sukut.
Ko'ngil notinch. Xayollar tig'i.
Yuragimda raqsga tushar
Jaranglagan sado qoldig'i.

Osmon, senga yuzlanay endi,
Jon kiritsin ishonchlar tafti.
Xabarim yo'q, qanday bo'larkan
Poyingga bir to'kilish baxti?

Beshafqat bu ildizlarimni
Yerga emas, qalbimga o'rnat.
Bir besavod bandangga asl
His qilishni, yashashni o'rgat.

Aytgan har bir toza so'zlarim
Sukunatga singib ketmasin.
Yuragimni osmonga joyla,
Armonlarning bo'yi yetmasin.

GULZOR

Gulzor qildi bir qarich yerni
Jajji go'dak, qizaloq birga.
Tez orada burkandi dunyo
O'zlariga o'xshagan gulga.

Keng ko'rindi dunyo shu qadar
Shu ikki juft ohu ko'zlarga.
Va shu zayl ular har kuni
Gul ekishardi kimo'zarga.

Lek boshqacha tugadi bari,
Biror narsa qolmadi esda.
Qaysidir tong qizcha uzoqqa
Uchib ketdi ajnabiy reysda.

Unutildi u gulzor. Afsus!
Xazonbarglar yopdi betini.
Yolg'iz "go'dak" ekmoqda faqat
Chekib bo'lgan sigaretini.

Doimgidek yengilur quyosh,
Xiralashar osmonning yuzi.
Gapirmoqchi bo'lgan shamolning
Tomog'ida qoladi so'zi.

Chiroq yumib olar ko'zini,
Sham atrofga mo'ltiraydi jim.
Bulutlarning sochi oqarib,
Yuzlariga tushadi ajin.

Va tabiat bor mavjudotni
Chohga tashlab tilaydi baxtlar.
Qiladigan ishi yo'qdayin
G'iybatlashar qari daraxtlar.

Yoniq lampa tevaragida
Aylanadi chivinlar giryon.
Noshukurki, ko'ring, erk uchun
Ozod qushlar ko'tarar isyon.

yerni yorib
osmonni teshib

erkka to'ygach qafasiga qayt
men kutaman
men yog'och eshik

* * *

Nimanidir unutdim,
Nedir chiqdi yodimdan.
Turfa xil xatolarim
To'g'on qurdi oldimdan.

Hech olg'a yurolmayman,
Tashlolmayman bir qadam.
Orqaga yuray desam,
Iloji yo'q buning ham.

Mayli, deya boshladim
Hammasini boshidan.
Meni rosa kuzatdim
Tashqaridan, tashidan.

Ne kamchilik, ne qusur,
Hisoblab ko'rdim zimdan.
Men o'zimni unutdim,
Umrin chiqdi yodimdan.

QAFAS

yog'och eshik

qarsillatib yop

va jo'nab ket

qibla to'rt tomon

qara

dunyo tushlaringdek sof

tushlaringdek musaffo osmon

qovurg'angda qanot

ikki juft

ko'kragingda bir sevgi mutlaq

kapalakning ko'zlaridan o'p

chigirtkani tumor qilib taq

to'yib yig'la

va

qo'shiqlar ayt

yerni yorib

osmonni teshib

erkka to'ygach qafasingga qayt

men kutaman

men yog'och eshik

MUNDARIJA

Zebo Mirzo. Ko'hna so'zning qirrasini.....	3
Fasl.....	5
"Albatta keladi o'sha kun...".....	5
Taxayyul.....	6
Bolalar uyida.....	7
Kurash.....	8
Shoir.....	9
Me'yor.....	10
Najot.....	11
Arosatdagi odam.....	12
Sodda.....	13
Uzrxonlar.....	14
Siluet.....	15
Moviy manzil.....	16
Hovur.....	17
Anglam.....	18
"G'oya...".....	19
"Turtib chiqdi ko'zimdan ko'ngil...".....	20
"Gunoh...".....	21
Baxt.....	21
Ishq.....	22
Xulosa.....	23
Haydalish.....	24
Bizga.....	24
Taraddud.....	25
She'r ehtiyoji va so'z ehtiyoji xususidagi nimarsa.....	26
Hur.....	27
Soflik.....	28
Ishtiyoq.....	29
"Yoddan chiqar hamma-hammasin...".....	30

"Nigohimni yopar..."	31
Uyg'onish.....	32
Quyosh.....	33
Erk.....	34
Rabbonam.....	36
Tavba.....	38
(Taglavha).....	39
"Yarashardi kecha yig'lasam..."	40
Umidning qiyofasi.....	41
Yashalgan kechinma.....	42
Ilojsizlik.....	43
U.....	44
Qishloq.....	45
Sen haqdagi tushlarim.....	46
"Nihoyat to'xtadi vaqtning ertagi..."	47
Evrilish.....	48
Senga.....	50
"Nigohimda g'ijimlangan xavotir..."	52
Hali.....	53
Muhabbat.....	54
Ona.....	55
Yoshlik.....	56
Dengizdagi qiz.....	57
"Har lahzani qo'ydim muzlatib..."	58
"Tinch turmaysan..."	59
Orzu.....	60
"Nur uyg'ondi..."	61
Gulzor.....	62
"Doimgidek yengilur quyosh..."	63
"Nimanidir unutdim..."	64
Qafas.....	65

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

H 31

H 31 Hasanov, Farrux.

Ichkari [matn]: *she'rlar* / F. Hasanov.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 68 b.

Adabiy-badiiy nashr

FARRUX HASANOV

ICHKARI

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:


Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.2.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №375.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



9175 cym



FARRUX HASANOV

ICHKARI

Farrux Hasanov 1995-yil Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida tug'ilgan. 2019-yil Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining iqtisodiyot va menejment fakultetini tamomlagan. Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida magistratura bosqichida tahsil olish bilan birga, Sirdaryo viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasida faoliyat yuritmoqda.

"ADABIYOT"

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6780-4-0



9 789943 678040